

QASHQADARYO VOHASI ILK TEMIR DAVRI YODGORLIKHLARI

*Oltiyev Quvonchbek Avliyoqul o'g'li
O'zbekiston Milliy Universiteti
Tarix fakulteti arxeologiya
yo 'nalishi 2-kurs magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qashqadaryo vohasidagi ilk temir davriga oid yodgorliklar, u yerdan topilgan qazilmalar, bu mavzuga o'z hissasini qo'shgan arxeolog va tarixchilarning o'rni va qilgan ishlari haqida fikr-muohazalar mavjud.

Kalit so'zlar: moddiy va ma'naviy yodgorliklar, arxeologik va me'morchilik yodgorliklari, Chiroqchi manzilgohi, Uzunqir yodgorligi.

Vatanimiz O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng otabobolarimiz yashab o'tgan tarixiy davr, yashash tarzi, madaniyati, ma'naviy-ma'rifiy jabhalarini o'rganish borasida izlanishlarni qaytadan boshlandi. Tarixga oid moddiy va ma'naviy yodgorliklar tarixchi va arxeologlar tomonidan o'rganilishiga jiddiy e'tibor qaratildi.

Qashqadaryo vohasi (Janubiy So'g'd) Markaziy Osiyoning qadimiylarini tarixiy-geografik hududlaridan biridir. Vohaning boy tarixi ko'plab tadqiqotchilar diqqatini o'ziga jalgan qilib kelmoqda. Qashqadaryo viloyati ko'p sonli arxeologik va me'morchilik yodgorliklari, xalq hunarmandchiligi markazlari keng tarqalgan o'lkadir. Vohaning qadimiylarini ham muhim voqealarga boy. Viloyat qadimgi savdo yo'llari chorrahasida joylashgan bo'lib, bu to'g'risidagi ma'lumotlar yozma manbalarda ham keng zaqlangan¹.

Ilk temir davriga oid yodgorliklar S.K.Kabanov tomonidan bundan 60-yil oldin o'rganilganligi va bular Tanhozardaryo va Yakkabog'daryo quyi qismlarida topib tekshirilgan edi².

Toshkent Davlat universiteti O'rta Osiyo arxeologiyasi kafedrasining 1976-1976-yillarda A.S.Sagdullayev tomonidan olib borgan tadqiqotlari natijasida Qashqadaryo vohasining sharqiy qismida ham bir qator ilk temir davri yodgorliklari ochildi. Daratepa yodgorligida ko'p yillik tadqiqotlar natijasida ushbu hudud uchun xos mil.avv VII-IV asrlarga oid turar tuzilishi qazib o'rganildi.

Miloddan avvalgi II ming yillik oxiri va I ming yillik boshlari O'rta Osiyoda qabila va xalqlarning keng ko'lamlari ko'chishi, ilk temir davrining boshlanish davri bo'lgani bilan e'tiborlidir. Bu davrda O'rta Osiyoning asosiy tarixiy-madaniy hududlari - Baqtriya, Marg'iyona, So'g'd, Xorazm shakllangan. Bu davrda ushbu mintaqada dastlabki shaharlar - dehqonchilik vohalarining markazlari paydo bo'ladi, ilk davlatlar

tashkil topadi. Shu davrdan boshlab O'rta Osiyoda shahar madaniyati uzliksiz, jadal sur'atlar bilan rivojlanib boradi.

Sirdaryo va Amudaryo oralig'ida, Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida qadimgi so'g'd elati va o'troq dehqonchilik madaniyati shakllanadi. Qashqadaryoda miloddan avvalgi birinchi asrning boshidan ikkita asosiy voha - Qarshi va Shahrisabz vohalari shakllanadi. Aleksandr Makedonskiy bilan birga yurtimizga kelgan yunon tarixchilari milodning IV asri oxirida Qashqadaryo vodiysidagi ikkita tarixiy-madaniy viloyat - Nautaka va Nikshapani eslab o'tishadi.

Qarshi vohasining qadimiyligi poytaxti - Yerqo'rg'on shahristoni hozirgi Qarshi shahri Shayxali mahallasidan 2 kilometr shimolda joylashgan tuproq qal'a bo'lgan. Yerqo'rg'on 50-60-yillarda dastavval S.Kabanov va M.Masson tomonidan o'rganilgan. XX asrning 70-80-yillarida esa O'zbekiston Fanlar akademiyasi Arxeologiya institutining ekspeditsiyasi tomonidan buerda ilmiy arxeologik tadqikotlar olib borilgan. Yerqo'rg'on hududi turli hajmdagi tepaliklar bilan qoplangan bo'lib, ular sobiq shahar vayronalaridir. Eng yirik tepalik hukmdor saroyi ekani aniqlangan. Shuningdek, qazuv ishlari davomida shahar butxonasi, maqbara, zardushtiylik dahmasi, hunarmandlar mahallalari topilgan. Yerqo'rg'on shahar taxminan VI asrning ikkinchi yarmida Turk xokonligi va Sosoniyalarning birlashgan kuchlari tomonidan eftalitlar davlatini yakson qilish paytida vayron qilingan.

Miloddan avvalgi birinchi ming yillikning o'rtalarida shahar kengayib boradi. U 35 hektarlik maydonni egallaydi. Taxminan miloddan avvalgi VI asrda qurilgan yangi mudofaa devorining balandligi 8 metr, poydevori 3 metr kenglikda bo'lgan. U shaharni sak chavandozlaridan himoya kilgan. Vaqt o'tishi bilan u bir necha marta ta'mirlangan va kengaytirilgan, IV asrning o'rtalariga kelib, uning qalinligi 20 metr gaetgan. Miloddan avvalgi III-II asrlarda Yerqo'rg'on o'rnidagi shahar rivojlanib borgan, buni arxeologik topilmalar tasdiklaydi. Jumladan, sopol buyumlarning shakli o'zgara boshlagan. Bular nafis jomlar, ovqat solinadigan idishlar, laganlardir, ayni paytda bu davrda vohada koroplastika san'ati vujudga kela boshlaydi. Bu davrdagi noyob terrakota rasmlar va bezaklar ellincha usulda yasalgan. Qazilmalar mobaynida topilgan momaqaldiroq xudosi Zevs tasviri tushirilgan miloddan avvalgi V-IV asrlarga mansub etruskcha gemmaintaliya ham shu davrga oiddir. Soqolli yalang'och mavjudot yarim burlgan holda chap qo'lida Zevsning hamrohi - burgut qo'ngan asoni ushlab turgan tarzda tasvirlangan.

Qashqadaryo vohasida topilgan ilk temir davriga oid birinchi yodgorlik Chiroqchi manzilgohi bo'lib, keyinchalik Erqo'rg'on qishlog'i madaniy yotqiziqlari negizida ilk temir davri qatlamlari topilgan, so'nggi yillarda esa Toshkent davlat universiteti arxeologiya kafedrasи tomonidan Qashqadaryo viloyatining Yakkabog' tumanida ilk temir davriga oid o'ndan ortiq manzilgohlar aniqlandi. Ularning dastlabki tipologik tadqiqini A.S.Sagdullayev olib bordi (Sagdullayev A.S., 1984).

A.S.Sagdullayev o‘rgangan aholi punktlari orasida ularning ikki turini ajratib ko‘rsatadi: atrofi to‘rtburchak yoki dumaloq devor bilan o‘ralgan, maydoni to‘rtdan ikki gektargacha bo‘lgan aholi punkti va mustahkamlanmagan tarqoq posyolka shaklida kichik istehkomga ega. katta tepalik. Yerqo‘rg‘on va Chiroqchi posyolkasi o‘rnida joylashgan ilk aholi punktining arxitektura-rejaviy xususiyatlarini baholash qiyin, chunki. birinchisi uning negizida qurilgan qadimiy shaharning ulkan qalinligi bilan to‘sib qo‘yilgan, ikkinchisi esa Chimqo‘rg‘on suv ombori suvlari tomonidan vayron qilingan. Chiroqchi manzilgohida faqat yupqa madaniy qatlam ko‘rinishidagi madaniy yotqiziqlarning quyi qismi qoldiqlari va kulolchilik buyumlari, hayvon suyaklari, alohida tosh buyumlari bo‘lgan xo‘jalik chuqurlari topilgan

N.I.Krasheninnikova boshchiligidagi ekspeditsiya tomonidan 1981-1984-yillarda Sho‘robsoyning o‘rta oqimida mil.avv. I ming yillik birinchi yarimiga oid Sangirtepa, Uzunqir, Podayotoqtepa yodgorliklari ochib o‘rganildi, hamda ularning mudofa devorlarni o‘rganish borasida tadqiqotlar o’tkazildi. Bu yerda o’tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Uzunqir o’tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki Uzunqir, Podayotoqtepa yodgorliklari taxminan 700-800 metr uzoqda joylashgan Sangirtepa yodgorligi esa Uzunqir yodgorligidan janubda joylashgan bo‘lib, orasidagi masofa taxminan 1 kmni tashkil etadi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki Sangirtepaning ilk shakllanish davri mil.avv IX-VIII asrlarga to‘g‘ri keladi. Bu davrda bu yerda mustahkam paxsa devor bilan devor bilan o‘ralgan yirik inshoat barpo etiladi. Mil.avv.VIII-VI asrlarda yodgorlik atroflari o‘zlashtirilib, qurulishlar olib borilgan. Tadqiqotlar davomida Sangtepa manzilgohidan mil.avv. IX-VII asrlarga oid odam sklet suyagining qoldiqlari ham topilgan.

Uzunqir yodgorligi Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanida joylashgan bo‘lib, u ilk temir davriga oid. Hozirgi paytda uning mudofaa devorining bir qismi saqlanib qolingga. Mudofaa devorining pastki qismi guvaladan, yuqori qismi esa paxsa va xom g‘ishtdan qurilgan. Devor qalinligi 1,85 metr bo‘lib, uning tashqi tomonidan to‘g‘ri burchakli minora–burjlar bilan mudofaalangan. Devorlarda shinaklar mavjud. Sug‘diyonaliklar sug‘orma dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanganlar. Dehqonlar bug‘doy, arpa, javdar ekkanlar.

Qashqadaryo vohasida topilgan kulolchilik buyumlari ikki guruhgaga bo‘linadi. 1.Kulolchilik charxida ishlangan naqshsiz idishlar–kosa, tovoq, xumchalar. 2.Qo‘lda yasalgan va geometrik naqshlar bilan bezatilgan idishlar. Ular asosan tog‘oldi xududlaridan topilgan¹.

1. [WWW.malumot.ru](http://www.malumot.ru)

2. forum.ziyouz.com

Uzunqir - shahar xarobasi. Zarafshon tizmasidan bosh olgan Sho'robsoy bo'yida (Kitob tumani) joylashgan. 1981-yilda ToshDU O'rta Osiyo arxeologiya kafedrasи ekspeditsiyasi xodimlari tomonidan topib tekshirilgan. Uzunqir o'rnida mil. av. VIII-VII asrlarda qadimgi manzilgoh bo'lgan. Mil. av. VII-VI asrlarda 70 ga maydonni egallagan. Uzunqir Kitob - Shaxrisabz vohasining iqtisodiy va ma'muriy markaziga aylangan. Uzunqirdan Taxtakrracha dovoni orqali qad. Samarkand (Marokanda)gacha bo'lgan masofa 70 km ni tashkil qilgan. Shahar Marokanda, Baqtra karvon yo'li bo'yida joylashib muhim savdo-sotiq va hunarmandchilik ahamiyatiga ega bo'lgan. Uzunqir ichki qal'a va shahar hududidan iborat. Yodgorlikning janubiy-garbiy tomonida uzunligi 450m mudofaa devorining xarobalari saqlanib qolgan. Devor ham g'ishtdan qurilgan to'g'ri burchakli burjlarga, burjli xonalarga va jangovar shinaklarga ega.

Uzunqir yirik o'troq dehqonchilik vohasining markazi sifatida qo'rg'onqarorgohi, guzarlari bo'lgan. Uzunqir topilmalari — sopol idishlar, jezdan va temirdan ishlangan mehnat va harbiy qurollari shaharda hunarmandchilik kasbi yuqori darajada taraqqiy etganligidan dalolat beradi. Sho'robsoy vohasidan topilgan madaniy o'simliklar (arpa, bug'doy), turli uzum navlari urug'lari bu yerda dehqonchilik va bog'dorchilikning taraqqiy etganligidan dalolatdir. Bu davrda kanal, ariqlar, qazish, daryolardan suv chiqarish, yangi ekin maydonlari o'zlashtirish va sugorish ishlari keng yo'lga qo'yilgan. Dehqonlar atrofi devor bilan o'ralgan qo'rg'onli uylarda va qishloqlarda yashashgan.

Keyingi davrda Uzunqir yanada kengroq o'zlashtirildi. Uning xuddi shu Darajada kengayishi aholining himoyalsh maqsadida istehkomlar qurish ehtiyoji tug'ildi. Mil.avv.VII-VI asrlarda murakkab mudofaa tizmi: Xom g'ishtlardan qurilgan mustahkam devordan bo'rtib chiqqan, burj xonalariga va plyastrlariga bo'lgan burjlar bilan mustahkamlangan mudofaa devorlari vujudga keladi. Lekin dastlabki davrda Uzunqir devor qalinligi, burjlar oralig'ida bor yo'g'i 1.85 metr ga teng bo'lgani unga qo'shimcha ikkinchi devorning qurilishi shu tufayli bo'lsakerak¹.

1. Rtbeladze E.B, Buryakov Y.F, Sulaymonov P.X. Qarshi. T., Ma'naviyat, 2006. 4-5-b

Tadqiqotlar natijalari va shurfdan olingen ma'lumotlar Uzunqir o'rnida ilk temir davri shahar markazi mavjud bo'lganligidan dalolat beradi. Qadimgi shahar qurilishida joyning tabiiy-geografik xususiyatlaridan muvafaqqiyat bilan foydalilanigan. Bu narsa birinchidan, uning joylashuvida, ikkinchidan, mudofaa devorining ilonizi shakldagi janubiy qismi ko'rinishida o'z aksini topgan. Uzunqir va uning atrofini suv bilan taminlash masalasi ham muhim ahamiyat kasb etadi, suv Sho'robdan va Zax bulog'i soyi hamda irmoqlaridan olingen bo'lib, u Uzunqirdan shimolroqda oqib o'tgan. Hozirgi davrda bu hudud Pistaxon kanali bilan sug'oriladi. U mahalliy aholi ma'lumotlariga ko'ra, ilgari bevosita Uunqir devorlarigacha kelgan bo'lib, endilikda

Dyuper yordamida Sho'robsoy orqali Sho'robsoy orqali suvni uzatadi. Kanalning boshlanish qismida o'tkazilgan tadqi-qiqotlar kanalning qadimiyligi, suvni Qashqadaryodan, yangi qishloq yonida oqib o'tuvchi irmoqdan danba yordamida olishi va yana ikkita boshlanish qismida ega bo'lганligini ko'rsatadi².

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, O'rta Osiyoda yaxlit temir buyumlaridan biri dastavval Sharqiy Qashqadaryoda mil.avv.VIII-VII asrlarga oid Daratepa manzilgohi tuproq qatlamlaridan topilgan. Podoyotoqtepa shahrining ilk elli davri qatlamlaridan (mil.avvIII asr) bir bo'lak mis hamda temirdan yasalgan yarim dumaloq shakldagi parcha topilgan. Bu ehtimol tugmacha yoki qo'ng'iroqchaparchasi bo'lishi mumkin. Sag'irtepa (Qorabog' qishlog'iyaqinida) manzilgohida topilgan temir tosh qonli mil.avvIasrga taalluqlidir. Qashqadaryo vohasidagi qazilmalarining o'rganilishi hali o'z yakuniga yetgani yo'q. U yerda turli soha vakillari bilan bir qatorda arxeologlar ham izlanishlarini davom ettirilayotganini ma'lum qilmay ilojimiz yo'q.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Кабанов С.К. Керамический комплекс из наслоений древнего городища в Китабе// ИМКУ. Т. 1962 42-53с.
2. Rtbeladze E.B, Buryakov Y.F, Sulaymonov P.X. Qarshi. T., Ma'naviyat, 2006. 4-5-b
3. Sagdullayev A.S. Shahrisabz tarixidan lavhalar. T., "Sharq" 1998, 12-b
4. . WWW.malumot.ru
5. forum.ziyouz.com